



Raqs LAMI



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI



PREZIDENT MUROJAATNOMASI — TA'LIM VA SAN'AT SOHALARI RIVOJNING STRATEGIK DASTURI

Yangi O'zbekistonda ta'lim, madaniyat va san'at sohalari amalga oshirilayotgan islohotlar davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilayotgan bugungi yangilanishlar jarayonida soha mutaxassis-lari oldiga aniq vazifalar qo'yilib, ularning rivo-jiga qaratilgan strategik maqsadlar belgilab berilmoqda.

Ma'lumki, shu kunlarda o'lkamizdagi turli vazirlik va idoralarda, jamoat tashki-lotlari hamda davlat boshqaruvining quyi bo'g'inlarida davlatimiz rahbarining Oliy Ma-jlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasi atroflicha muhokama qilinib, uning maz-mun-mohiyati chuqur o'rganilmoqda.

Ana shunday muloqotlardan biri ke-cha poytaxtimizdagi O'zbekiston davlat xo-reografiya akademiyasida ham o'tkazildi.

Tadbirida Murojaatnomada belgilangan olti asosiy ustuvor yo'nalish, yil nomlanishi, ta'limga qaratilayotgan alohida e'tibor, sun'iy intellektidan foydalanish, ichki va tashqi alo-qalarni rivojlantirish, shuningdek, O'zDXAn-ing mazkur vazifalar ijrosiga qo'shayotgan hisssasi xususida atroflicha fikr almashildi.

Davra suhbatida avvalida so'z olgan filologiya fanlari doktori, professor Hulkan Hamroyeva Prezident Murojaatnomasining mazmun-mohiyati, unda ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy sohalar oldiga qo'yil-gan vazifalar va ularn-ing ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tdi.

E'tiborli jihati, O'zbekis-ton davlat xoreografiya ak-adeimiyasi rektori, profes-sor Shuhrat To'xtasimov 26 dekabr kuni bo'lib o'tgan Murojaatnoma yig'inida shaxsan ishtirok etgani-ni ta'kidlab, unda belgilangan vazifalarning dolzarbligi, erishilgan natijalar hali islohotlar boshlang'ich bosqichi ekani, oldinda bun-danda katta marralar borligini qayd etdi.

– Prezidentimizning Murojaatnomasi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining navbat-dagi bosqichiga yo'naltirilgan dasturiy hujjat

sifatida barchamiz uchun katta ahamiyat-ga ega, –dedi O'zDXA rektori Sh.To'xtasimov. – Aytish o'rinliki, Murojaatnomada ta'lim, madaniyat va san'at sohalari strategik rivo-jlanishning muhim yo'nalishlari sifatida bel-gilab berildi. Ayniqsa, ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mu-taxassislar tayyorlash, yoshlarning ijodiy salo-hiyatini qo'llab-quvvatlash masalalariga alo-hida urg'u berildi. Bu o'z navbatida, san'at va madaniyat ta'limi bilan shug'ullanuvchi oliy ta'lim muassasalari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Akademiyaning yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori Nargiza Alimova esa Murojaatnomada belgi-langan ustuvor yo'nalishlar yoshlar ta'lim-tar-biyasi, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Shuningdek, uchrashuv davomida pro-fessor o'qituvchilar va yosh mutaxassislar ham so'zga chiqib, Murojaatnomada belgil-angan vazifalar xususida o'z fikr-mulohazala-rini bildirdilar. Xususan, ta'lim jarayoniga in-



D.Hakimov,
O'ZA

novatsion usullarni joriy etish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanish, xalqa-ro hamkorlikni kengaytirish orqali akademi-ya nufuzini oshirish masalalari muhokama markazida bo'ldi.




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI VA DAVLAT STIPENDIYALARI G'OLIBLARI ANIQLANDI


O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "2025/2026-o'quv yili uchun respublika oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriat bosqichi talabalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini tayinlash to'g'risida" 2026-yil 2-fevraldagi 34-son buyrug'iga muvofiq, O'zbekiston davlat xoreografi-ya akademiyasi "Xoreografiya jamoalari rahbari" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talaba-

si Dilyoraxon Nomonova "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendi-yasi"ga sazovor bo'ldi.

Bu hali hammasi emas, "Professional ta'lim" yo'nalishi 3-kurs talabasi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Yelizaveta Trashkova va akademiyan-ing Urganch filiali 4-kurs talabasi, Xo-reografiya fakulteti koordinatori Dilnoza Boboqulova "Islom Karimov nomli dav-lat stipendiyasi"ga sazovor bo'ldi.



Dilyoraxon Nomonova



Yelizaveta Trashkova



Dilnoza Boboqulova

БЕРНАРА КАРИЕВА – ЖИВАЯ ЛЕГЕНДА БАЛЕТА УЗБЕКИСТАНА

Имя Народной артистки Бернары Кариевой неразрывно связано с рас-цветом классического балета Узбеки-стана. Ее уникальные образы запали в сердце не одного поколения зрителей. Увидев однажды танец Бернары Кари-евой, благодарная публика становил-ась приверженцем не только таланта замечательной балерины, но и класси-ческой хореографии в целом.

«Ташкентский зритель уже успел полюбить недавнюю дебютантку Б. Кариеву. Исполнение партии Нины отличается завидными, редкими для балерины качествами — удивительной непосредственностью чувствования, лирическим драматизмом пережива-

ний». «Правда Востока», 31. XII. 1958 г.

«Бернара Кариева производит ис-ключительное впечатление в испол-нении трагической Донны Анны. Она реализовала все качества больших танцовщиц. Она органична в танце-вальной манере и в сценических по-ступках своей героини и в этом смыс-ле она абсолютная Прима-балерина». Антуан Шану, «Египетская газета», 16. III. 1966 г.

«Судьба Одетты-Одиллии - Бернары Кариевой волнует, как истинная драма жизни. Зритель естественно входит в сферу большой поэзии, танца и музы-ки благодаря балерине, перешедшей условность балета — в безусловность истинной поэзии». Народная артистка Тамара Ханум, творческий вечер Б. Ка-риевой, 19.11.1970 г.

Бернаре Кариевой посвящены фильмы: «Танцует Бернара Кариева» и «Балерина». Известный искусство-

(продолжение на 2-й странице)

XALQARO HAMKORLIK: XXR DELEGATSIYASI AKADEMIYADA

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ma-qsadida, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasiga Xitoy Xalq Respublikasining bir guruh delegatsiya a'zolari tanishish uchun tashrif buyurdi. Delegatsiya tarkibi-da Chjantszyazse kolleji rektori, professor Tszyan Debin; Xalqaro aloqalar instituti di-rektori Bu Ayxua; Chjantzyatze filarmonik orkestri bosh direktori Lo Yun; Xitoy Simfon-ik musiqa taraqqiyoti jamg'armasi masla-

hatchisi, Shanxay xalqaro madaniy aloqalar assotsiatsiyasi a'zosi, Chjantzyatze universite-tining taklif etilgan professori Chjen Tzyango, shuningdek, tarjimon "Skripka" mutaxassis-ligi bo'yicha magistrant Nadiya ishtirok etdi.

Tashrif davomida mehmonlar akademiya faoliyati, kadrlar tayyorlash tizimi, o'quv-uslu-biy baza hamda xoreografiya san'ati sohasi-dagi ta'lim, ilm-fan va ijodiy jarayonlarning asosiy yo'nalishlari bilan yaqindan tanishdilar.

Bo'lib o'tgan uchrashuv doirasida tomonlar akademik almashinuv, qo'shma ta'lim va ijodiy loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish mas-alalarini o'z ichiga olgan holda kelgusi-dagi hamkorlik istiqbollarini muhoka-ma qildilar.

Diana Abdulova,

Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i



(Продолжение, начало на 1-й странице)

БЕРНАРА КАРИЕВА – ЖИВАЯ ЛЕГЕНДА БАЛЕТА УЗБЕКИСТАНА

вед Любовь Авдеева написала книги «Бернара Кариева», «Танец Бернары Кариевой», её творчеству посвящено множество статей. Имя Бернары Кариевой вошло в Большую Энциклопедию, в инстаграме «Глобальная балетная организация» назвала её «живой легендой» и публикует редкие фотографии артистки.

Тернистый путь к славе и успеху начался в раннем детстве, когда папа будущей балерины, директор театра оперы и балета Рахим Маджидович Кариев привёл дочку в театр, где для участия в спектакле нужны были маленькие дети в ролях птичек. Затем способную девочку приняли в хореографическое училище, откуда по рекомендациям Раисы Стручковой направили для продолжения учёбы в Москву.

Именно здесь – вдали от любящих родителей, один на один с профессией, требующей силы воли, трудолюбия и терпения, выковался сильный характер, умение поставить перед собой главный план и добиться результата.

Несмотря на заманчивые предложения остаться в Москве, юная балерина вернулась в Ташкент, в родной театр и сразу с головой окунулась в работу.

Одна за другой осваивались партии в классических балетах, начались поиски – выкристаллизовывание образа каждой героини. Новая роль

– новый образ, характер, отличный от предыдущего.

Её репертуар богат и разнообразен. Это и классические партии – Мария «Бахчисарайский фонтан», Жизель – «Жизель», Одетта-Одиллия – «Лебединое озеро», Китри – «Дон Кихот», Фригия – «Спартак», Параша «Медный всадник», Нина – «Маскарад», Золушка – «Золушка»; это и балеты на национальную тему – Семург – «Семург», Мехри – «Сухайль и Мехри», Рано – «Тановар» и многие другие.

С наступлением этапов творческой зрелости балерина пополняет свой балетный репертуар, в котором индивидуальность балерины – актрисы по-новому раскрывает собой присущую Бернаре Кариевой нежность, трепетность, драматизм и в то же время духовную стойкость, верность мечте, идеалам. Анна Каренина – «Анна Каренина», Джульетта – «Ромео и Джульетта», Офелия – «Гамлет», Дездемона – «Павана мавра», Мадам Бовари – «Мадам Бовари» – неповторимые образы, оставшиеся в истории балета Узбекистана.

Особое место в репертуаре занимают авторские балеты на музыку Румиля Вильданова, поставленные балетмейстером И. Г. Горлиной. Образы Марьямхон – «Отравленная жизнь», Незнакомка – «Незнакомка» по мотивам творчества А. Блока, Лирическая героиня в «Элегии» по произведениям И. С. Тургенева – раскрывают ещё одну грань таланта актрисы Бернары Кариевой.

Наполненная творческим вдохновением, в 1972 году Бернара Кариева осуществила свою мечту – создала «Молодой балет Узбекистана», ставший олицетворением молодости и красоты. Новаторский шаг, где сочетание классической хореографии и узбекского народного танца дало возможность балетмейстерам создавать оригинальные компози-

ции, полюболюбившиеся зрителями.

Передавая эстафету молодёжи, Бернара Кариева завершила сценическую деятельность, исполнив на шестидесятилетнем юбилее восемнадцать отрывков из любимых спектаклей и концертных номеров, подарив зрителями самые яркие фрагменты своего творчества.

Целеустремлённая личность с неиссякаемой энергетикой, Бернара Кариева сделала шаг в новом направлении. Являясь лидером женщины-руководителя в театральном обществе, вместе с Кириллом Лавровым, Михаилом Ульяновым театр сумела убедить руководство страны и отстоять право на создание Союза театральных деятелей и на протяжении долгих лет возглавляла Союз театральных деятелей Узбекистана.

И снова шаг вперед – Бернара Кариева – председатель координационного совета по вопросам Юго-Восточной Азии. По её инициативе в 1993 году в Ташкенте был успешно проведен первый международный фестиваль «Театр: Восток-Запад», который позволил увидеть зрителям интересные европейские театральные постановки. В свою очередь, областные театры Узбекистана получили возможность выезжать на гастроли за границу, где, показывая свою работу, получая признательность общественности и высокие отзывы.

За небольшой срок пребывания в должности художественного руководителя и директора Государственного академического Большого театра имени Алишера Навои Бернара Рахимовна вновь демонстрирует организаторские способности в организации международных гастролей. Узбекским артистам рукоплескали в Таиланде, Малайзии, Китае, Японии, Индии...

Сегодня Бернара Кариева – профессор, педагог, наставник. Она полна

идей и новых проектов, с удовольствием работает со студентами, веря в то, что им удастся сделать следующий шаг в развитии танцевального искусства Узбекистана.

В день юбилея студенты и педагоги, родные и близкие желают замечательной актрисе, любимой балерине, педагогу, Народной артистке Бернаре Рахимовне Кариевой здоровья, творческого вдохновения и долгих лет счастливой жизни.



Елена Кари-Якубова,
Преподаватель кафедры
«Теория и история искусств»

KAVKAZ XALQLARI RAQSLARIDAGI NAFIS AN'ANALAR

Kavkaz xalqlari madaniyatida raqs alohida o'rin tutadi. Bu hududda shakllangan raqsalar jasorat, or-nomus, hurmat va nafislik kabi qadriyatlarni ifodalaydi. Har bir harakat, qadam va imo-ishora xalqning tarixiy xotirasi hamda axloqiy meyorlari bilan chambarchas bog'liq. Ana shunday boy madaniy merosning yorqin namunalaridan biri — chechen to'ylarida ijro etiladigan an'anaviy raqsardir.

Chechen to'ylari qadimdan davom etib kelayotgan urf-odatlariga boy marosim hisoblanadi. To'y faqatgina ikki yoshning nikohi emas, balki ikki oila, hatto butun jamoaning ijtimoiy va madaniy jihatdan birlashuvi sifatida qaraladi. To'yga ikki tomon ham, butun mahalla ahli tayyorgarlik ko'radi. Bu jarayon odamlarni yaqinlashtiradi, o'zaro hurmat va birdamlikni mustahkamlaydi. To'y kuni katta ziyofat uyushtiriladi, uzun dasturxonlar yozilib, milliy taomlar bilan bezatiladi. Mehmonlar hadyalar bilan kelishadi, qo'shiqlar kuylanadi, hikoyalar aytiladi. Biroq, chechen to'ylarining eng muhim va ajralmas qismi — jonli musiq va raqsardir. Aynan raqsar to'yning "ruhi" hisoblanib, bayramona kayfiyatni oshiradi va mehmonlar orasidagi hurmat hamda qadriyatlarni namoyon etadi. To'ylarda erkaklar va ayollar ko'pincha alohida-alohida raqsqa tushadilar. Ayollar raqsi oqqush timsolida tasvirlanib, sokinlik, nafislik va o'zini tuta bilishi bilan ajralib turadi. Qizlarning harakati muloyim, qaddi-qomati tik va qadam-

larida vazminlik seziladi. Erkaklar raqsi esa burgut obrazini eslatadi, ya'ni tezkor, kuchli, qat'iy va sakrashlarga boy harakatlarga qat'iy va sakrashlarga boy harakatlarga orqali jasorat va mardlik ifodalanadi.

Ayollar ko'pincha "Lovzar" raqsini ijro etadilar. Unda qizlar birma-bir maydonga chiqib, o'z tasavvuridagi oqqush obrazini gavdalantiradilar. Erkaklar esa tomoshabinlar, ayniqsa yoshlar oldida o'z kuchi va chaqqonligini namoyish etib, barchani hayratga soladi. Vaqt o'tishi bilan yigitlar va qizlar juftlik bo'lib raqsqa tushadilar. Yigit maydonga chiqib, istagan qizini raqsqa taklif qiladi, qiz rozilik bildirsa, raqs davom etadi.

Juft raqslarda yigit va qiz bir-biriga tegmaydi. Bu holat chechen xalqining hurmat va odob-axloq meyorlarini ifodalaydi. Raqs ramziy ma'noga ega: yigit burgut, qiz esa oqqush sifatida talqin qilinadi. Go'yoki oqqush suv yuzida suzib yurganida, burgut uni osmondan kuzatib, har qanday xavf-xatardan asraydi. Raqs davomida qiz o'zining qat'iyligi va nafisligini namoyon etishi lozim. Qiz yigitning ko'ziga uzoq tikilmaydi, yigit esa qizni nazaridan qochirmaydi. Agar yigitga qiz yoqib qolsa, u o'z niyatini to'yda hozir bo'lganlar yoki qizning yaqinlariga bildirish maqsadida bosh kiyimini qiz belidan aylantirib, ramziy ishora qiladi. Raqs paytida yigitning ehtiyoysiz harakati, ya'ni qizga tasodifan tegib ketishi, oilalar o'rtasida kelishmovchilikka sabab bo'lishi mumkin. Shu bois yigit raqs davomida o'zini nihoyatda ehtiyotkor tutadi, bu esa uning hurmat va mas'uliyatini yanada oshiradi.

Ba'zan raqscho'g'ida qiz o'z his-tuyg'ularini juda nozik tarzda ifodalaydi. U yigitga bir lahzaga ko'z tashlab, sevgisini bildirishi mumkin. Yigit esa butun raqs davomida aynan shu onni intizom bilan kutadi. Agar boshqa bir yigit qiz bilan raqsqa tushmoqchi bo'lsa, u juftlikka yaqinlashib taklif bildiradi, ammo qaror faqat qiz ixtiyorida bo'ladi. Qiz rozi bo'lmasa, boshini sekin egib, raqsni yakunlaydi. Chechen to'ylarida yana bir muhim qoida mavjud.



Raqsni har doim birinchi bo'lib qiz tark etadi. Agar yigit birinchi chiqib ketsa, bu holat kuchsizlik va irodasizlik belgisi sifatida qabul qilinadi. Atrofdagi mehmonlar esa raqsqa tushayotgan juftlikni qo'llab-quvvatlab, ularning chiqishiga ruhiy madad berib turadilar.

Xulosa qilib aytganda, chechen to'ylaridagi raqsar nafaqat estetik go'zallik, balki chuqur ma'naviy va ramziy mazmunga ega bo'lib, Kavkaz xalqlari madaniyatining betakror jihatlarini yaqqol namoyon etadi. Chechen to'ylaridagi raqsar oddiy bayram unsuri bo'lib qolmay, balki xalqning ko'p asrlar tarixi, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini mujassam etgan muhim madaniy

hodisadir. Bu raqsar orqali erkak va ayol o'rtasidagi hurmat, or-nomus, sabr-toqat hamda o'zini tutish kabi fazilatlar namoyon bo'ladi. Har bir harakat va qoidaning mavjudligi jamiyatdagi tartib-intizom va an'anaviy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, chechen to'y raqsarlari yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. To'ylarda ijro etiladigan raqsar orqali yoshlarga ajdodlar merosi, madaniy meyorlar va

o'zlikni anglash tushunchalari yetkaziladi. Bu jarayon milliy o'zlikni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Umuman olganda, chechen to'ylaridagi raqsar Kavkaz xalqlari madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, unda nafislik va qudrat, sokinlik va jo'shqinlik uyg'unlashgan. Ular nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlab, xalqning o'z an'alariga bo'lgan sadoqatini yaqqol ifodalaydi.

Dinara Qodirova,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi



O'ZBEK QO'G'IRCHOQ TEATRINING ESTETIK XUSUSIYATLARI

O'zbek qo'g'irchoq teatri xalqimizning qadimiy ma'naviy merosining ajralmas qismi bo'lib, u asrlar davomida xalqning dunyoqarashi, orzu-intilishlari, tarbiyaviy va estetik qarashlarini o'zida mujassam etib kelgan. Qo'g'irchoq san'ati nafaqat bolalar uchun mo'ljallangan tomosha shakli, balki kattalar ongiga ham ta'sir ko'rsata oladigan, ramziy ma'nolar va falsafiy mazmunlarga boy san'at turi sifatida shakllangan. O'zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlar, milliy xarakteri va ijtimoiy munosabatlari qo'g'irchoq teatrlari orqali obrazli va ta'sirchan tarzda ifodalangan. Shu jihatdan qo'g'irchoq teatri xalq og'zaki ijodi, teatr san'ati va amaliy san'atning o'zaro uyg'unlashgan noyob ko'rinishi hisoblanadi.

Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, Markaziy Osiyo hududida qo'g'irchoq tomoshalari juda qadim zamonlardan mavjud bo'lganini ko'rishimiz mumkin. O'zbek qo'g'irchoq teatri shakllanishida xalq tomoshalari, masxarabozlik, dorbozlik va qo'g'irchoq o'yinlari muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, "Chodir jamol" va "Chodir xayol" kabi an'anaviy qo'g'irchoq tomosha turlari o'z davrida keng tarqalgan bo'lib, ular orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, insoniy illatlar va hayotiy voqealar kulgili hamda tanqidiy ruhda tasvirlangan.

O'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatri-da qo'g'irchoqlar asosan yog'och, mato va charm kabi tabiiy materiallardan tayyorlangan bo'lib, ularning tashqi ko'rinishida milliy kiyimlar, bosh kiy-

imlar va bezaklar aks ettirilgan. Har bir qo'g'irchoq o'ziga xos xarakter va obrazga ega bo'lib, ularning harakati, ovozi va mimikasi orqali tomoshabin-ga aniq bir g'oya yetkazilgan. Shu bilan birga, qo'g'irchoqlarning badiiy bezagi va rang tanlovi ham muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, ular orqali obrazning ijtimoiy mavqei, fe'l-atvori va xarakter xususiyatlari yanada yaqqol ochib berilgan. Qo'g'irchoqbozlar har bir qahramonga mos ovoz ohangi va harakat uslubini tanlab, tomoshabinning jonli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlagan. Qo'g'irchoqlarning sahna-dagi harakati musiqa

va dialoglar bilan uyg'unlashib, tomoshabinning e'tiborini bir maromda ushlab turishga xizmat qilgan. Natijada qo'g'irchoq obrazi faqat tashqi ko'rinish bil-

angina emas, balki ichki mazmun va g'oyaviy yuklama orqali ham to'laqonli badiiy qiyo-fa kasb etgan.

Qo'g'irchoq teatrining asosiy vazifalaridan biri uning tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. O'zbek qo'g'irchoq tomoshalarida yaxshilik va yomonlik, adolat va zo'limlik, halol-

lik va yolg'onchilik kabi tushunchalar qarama-qarshi qo'yilib, tomoshabin ongida ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilgan. O'zbek qo'g'irchoq teatrida obrazlar tizimi va dramaturgiya masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Tomoshalarda ko'pincha xalq orasida mashhur bo'lgan qahramonlar — ayyor va topqir obrazlar, sodda xalq vakillari yoki adolatsiz hokim timsollari orqali muayyan g'oya ilgari surilgan. Ushbu obrazlar tomoshabin tomonidan tez qabul qilinishi va esda qolishi bilan ajralib turadi. Qo'g'irchoq tomoshalarining ssenariylari ko'pincha og'zaki ijod asosida shakllanib, unda dialoglarning jonli, xalqona va ta'sirchan bo'lishiga e'tibor qaratilgan. Bu esa qo'g'irchoq teatrining xalq hayotiga yaqin va tushunarli san'at turi sifatida yashab kelishiga sabab bo'lgan.

XX asrga kelib o'zbek qo'g'irchoq teatri yangi bosqichga ko'tarildi. Professional qo'g'irchoq teatrlari tashkil etilib, sahna madaniyati va rejissura masalalariga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Maxsus tayyorlangan sahnalar, dekoratsiyalar va badiiy bezaklar qo'llanilib, spektakllarning estetik saviyasi oshirildi. Professional qo'g'irchoq

respublika miqyosida, balki xalqaro maydonda ham munosib o'rin egallab bormoqda. Mamlakatimiz qo'g'irchoq teatrlari turli xalqaro festivallar, ijodiy uchrashuvlar va madaniy almashinuv dasturlarida faol ishtirok etib, milliy san'atimizni xorijiy tomoshabinlarga tanishtirmoqda. Ushbu jarayonda o'zbek qo'g'irchoq san'atining milliy uslubi, obrazlar tizimi va badiiy ifoda vositalari alohida e'tirof etilmoqda. Xalqaro sahnalarda namoyish etilayotgan spektakllar orqali o'zbek xalqining madaniy qadriyatlari, ertaklari va hayotiy qarashlari badiiy shaklda ifodalanib, boshqa madaniyat vakillari bilan ijodiy muloqot imkoniyati kengaymoqda.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek qo'g'irchoq teatri xalqimizning ko'p asrlik madaniy va ma'naviy tajribasini o'zida mujassam etgan noyob san'at turlaridan biridir. U xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar va estetik qarashlar bilan chambarchas bog'langan holda shakllanib, avloddan avlodga meros bo'lib kelmoqda. Qo'g'irchoq teatrida hayotiy voqealar, ijtimoiy munosabatlari va insoniy fazilatlar ramziy obrazlar orqali ifodalanib, tomoshabin



teatrlari faoliyati bilan aktyorlik mahorati, qo'g'irchoqni boshqarish texnikasi va ovoz bilan ishlash madaniyati rivojlandi. Rejissuraga jiddiy yondashilib, sahna harakati, dramatik qurilish va musiqiy bezaklar uyg'unligi ta'minlandi. Natijada qo'g'irchoq teatri mustaqil san'at turi sifatida shakllanib, uning badiiy imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi.

Mustaqillik yillarida o'zbek qo'g'irchoq teatriga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi va uning milliy madaniyatdagi o'rni qayta baholandi. Bu davrda milliy qadriyatlarni tiklash, tarixiy merosni asrab-avaylash hamda yosh avlod ongiga milliy g'urur tuyg'usini singdirish jarayonida qo'g'irchoq san'ati muhim madaniy vosita sifatida qarala boshlandi. Repertuarlarda o'zbek xalq ertaklari, tarixiy shaxslar va milliy an'analarga asoslangan sahna asarlari ko'paydi. Shuningdek, bolalar tarbiyasiga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy mazmundagi spektakllar yaratilishi qo'g'irchoq teatrining ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshirdi. Bugungi kunda o'zbek qo'g'irchoq teatri nafaqat

ongiga sodda, ammo ta'sirchan shaklda yetkaziladi. Ayniqsa, ushbu san'at turi yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etib, ularni ezgulik, adolat va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda o'zbek qo'g'irchoq teatri an'anaviy shakllarni saqlagan holda zamonaviy san'at talablari asosida rivojlanib bormoqda. Yangi sahna yechimlari, texnik imkoniyatlar va ijodiy izlanishlar orqali qo'g'irchoq tomoshalarining badiiy saviyasi yanada yuksalmoqda. Shu bilan birga, milliy ruh va tarixiy merosga sodiqlik ushbu san'at turining asosiy tayan-chi bo'lib qolmoqda. Demak, o'zbek qo'g'irchoq teatrini o'rganish, uni rivojlantirish va asrab-avaylash nafaqat san'atshunoslar, balki butun jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Gulasal Qurbonova,

"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

BUGUNGI KUNDA
O'ZBEK QO'G'IRCHOQ
TEATRI AN'ANAVIY
SHAKLLARNI
SAQLAGAN HOLDA
ZAMONAVIY SAN'AT
TALABLARI ASOSIDA
RIVOJLANIB
BORMOQDA.

“O‘LAYOTGAN OQ QUSH” — ABADIYATGA PARVOZ

Balet san'ati inson his-tuyg'ularining eng nozik, eng chuqur qatlamlarini harakat orqali ifodalashga qodir bo'lgan yuksak san'at turidir. Uning har bir qadami, musiqasi va plastikasida hayot, o'lim, go'zallik hamda izzat bir butun uyg'unlikda aks etadi. Bu san'atning jahon sahnasida o'ziga xos timsoliga aylangan durdonalaridan biri — “O'layotgan oq qush” (“La Mort du Cygne”) asaridir.

Ushbu balet inson hayotining eng so'nggi daqiqalarini, hayot bilan o'lim o'rtasidagi kurashni, ruhning tanadan ajralish fojeasini raqs orqali nihoyatda nozik, ta'sirchan tarzda ifodalaydi. Mazkur asar 1905-yilda buyuk rus bastakori Kamil Sen-Sansning “Hayvonlar karnavali” (“Le Carnaval des Animaux”) turkum asaridagi “Oq qush” nomli qisqa musiqasiga xoreograf Mixail Fokin tomonidan sahnalashtirilgan.

Bu raqs mashhur balerina Anna Pavlova uchun maxsus sahnalashtirilgan bo'lib, aynan uning ijrosi tufayli “O'layotgan oq qush” asari jahon balet san'atining abadiy timsoliga aylangan. Pavlovaning bu chiqishi o'z davrida tomoshabinlar qalbini larza-

ga solgan, balet tarixida yangi sahifa ochgan ijodiy hodisa bo'lgan.

Asar syujeti soddaligi bilan birga falsafiy jihatdan nihoyatda chuqurdir. U sahnada yolg'iz balerina — oq qush timsolida — hayotining so'nggi lahzalarini kechiradi. U yarador, kuchsiz, ammo yashashga bo'lgan intilishi, hayotga bo'lgan muhabbati hali so'nmagan. Musiqa ohista va sokin, ammo yurakni ezuvchi og'riq va izzat bilan to'la. Har bir harakat, har bir burilish, har bir nafas — bu ruhning tanadan ajralishi, hayot bilan o'lim o'rtasidagi so'nggi kurashdir.

A. Palova ijrosidagi qushning qanoti so'nggi bor qoqiladi, tanasi zaiflashadi, ammo ruh hali parvozdan to'xtamaydi. Aynan shu sahna inson ruhining o'lmasligini, hayotning abadiy go'zalligini madh etadi. “O'layotgan oq qush” baletining jozibasining soddaligidan. Asar atigi to'rt daqiqa davom etadi, ammo shu qisqa vaqt ichida butun insoniyat kechmishi, tabiatning aylanish qonuni, hayotning o'tkinchiligi va abadiyligi mujassam topgan.

Raqqosa bu raqsda nafaqat qushning o'limini, balki insonning hayotga bo'lgan

cheksiz muhabbatini, o'lim qarshisidagi izzatini, ammo shu bilan birga ruhiy yuk-salishini ham ifodalaydi. Bu baletda ortiqcha sahna bezaklari, dekoratsiyalar yoki murakkab sahna harakatlari mavjud emas. Butun diqqat markazi ijrochining o'zida — uning tanasining moslashuvchanligida, har bir mayda harakatida, har bir nozik burilishida. Shuning uchun ham bu asar “balet texnikasi” bilan emas, balki “his-tuyg'u baleti”

boqiyiligini ko'rsatishni istagan. Shuning uchun ham “O'layotgan oq qush” — bu fojea emas, aksincha, hayotning o'lmas go'zalligini madh etuvchi asardir.



Bugungi kunda ham bu asar dunyoning ko'plab teatr sahnalarida ijro etiladi. Har bir mohir balerina o'z yuragidan kelgan talqinda uni qayta jonlantiradi: kimdir unda izzatni, kimdir osoyishtalikni, kimdir esa ruhning yengilligini ko'radi. Ammo ularning barchasini birlashtiruvchi jihat — bu asarning abadiy go'zalligi va insoniy mohiyatidir.

Bu balet asarni tomosha qilgan tomoshabin beixtiyor hayot uning mohiyati va go'zalligi haqida o'ylaydi. Oq qush o'ladi, ammo uning parvozi muhlislar yodida abadiy qoladi. Xuddi shunday, san'at ham inson umrining o'tkinchiligidan boqiy iz qoldiradigan mo'jizadir. “O'layotgan oq qush” baleti ana shu mo'jizaning eng nafis, eng chuqur va eng go'zal ifodasidir.

Adiba Fayzullayeva,
“San'atshunoslik” ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi

RAQS OLAMIGA ILK QADAMLARIM

Raqs — san'atning eng go'zal, eng nafis turi hisoblanadi. Raqsda musiqaga monand ritmik tana harakatlari namoyon bo'ladi. Raqs harakatlari orqali inson o'z fikrini, his-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini ifoda etadi. Raqqosaning tana harakatlari, holatlari, plastik ifodaviyligi, yuz imo-ishoralari, ritm, temp, kompozitsiya orqali obraz yaratish raqsning asosiy vositasidir. Raqs xalq marosimlari, bayramlarining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xoreografiya yo'nalishi bilan 14 yil mobaynida shug'ullanib kelmoqdaman. 4 yoshimga to'lganimda oyijonim meni 15-sonli musiqa maktabiga olib bordilar. Bir necha marotaba raqs darslariga bordim, lekin keyinchalik esa borishdan bosh tordim, chunki raqs tushishni yoqtirmas va raqsni tushuna ham olmas edim. Bego-na insonlarning qarshisida raqsqa tushish menga noqulay edi. Shu payt bir voqea barchasini o'zgartirib yubordi: oyijonim menga agar raqs darslariga borsam, menga har bir darslik uchun shokolad olib berishlarini aytdilar. Tushunganingizdek men faqatgina shokolad uchun raqs darslarini hech ham qoldirmas edim. Bora-bora ustozim Umarali Muslimov saboqlari orqali raqs nima ekanini tushunib, uni his qila boshladim. Raqsqa tushayotgan paytim ichimdan o'tayotgan his-tuyg'ularni

tomoshabinga yuz ifodalarim orqali ifodalab berishni istardim. Shahar, viloyat, so'ngra respublika miqyosidagi tanlovlarda ishtirok etib nufuzli o'rinlarni qo'lga kiritdim.

10 yoshga to'lar-to'lmas uyimdan, ota-onamdan yiroqda bo'lganim sababli, sog'inchi hissiyotlaridan qancha qiyinchilik ko'rsam ham, buviyonimning: “qizim haqiqiy, oliy ma'lumotli pedagog bo'la olasan” degan gaplari qulog'imdan ketmasdi. Raqs bu shunchaki musiqa ritmiga mos harakatlanish emas, balki uning ich-ichida yashamoq, yuz ifodalari orqali namoyish qilmoq, insonga o'zgacha hush kayfiyat olib keluvchi san'atdir. Xoreografiya bilim yurtida men, Janna Mihaylovna, Irina Radikovna, Dilbar Muxammedovna, Nigina Farhadovna, Yelena Viktorovna, Damira Odilovna kabi tajribalari o'qituvchilardan raqs sirlarini o'rgandim.

Biz ansamblimiz bilan birgalikda Mustaqillik, Navro'z, 8-mart kabi davlat tadbirlarida hamda turli xil festivallarda ishtirok etdik. O'z ustimda ishlashdan aslo to'xtamadim va kundan kunga ijodiy o'sib borayotganimni ustozlarim ta'kidlashardi. Raqsqa tushgan chog'imda uning ichida yashar edim, so'z bilan ta'kidlash mushkul lekin qalbimning tub-tubida ulkan hayajon olovdek yonib turardi. O'zim his

qilayotgan tuyg'ularni tomoshabinga yetkazib berishga harakat qilardim.

Barcha raqs turlarini o'zlashish maqsadida har xil meros raqslarni o'rganib, ustozim Damira Sagirovaga ijro etib berardim. 2025-yilga kelib respublika miqyosidagi “Yosh ijrochilar” tanlovida qatnashib, “Mumtoz raqs” yo'nalishi bo'yicha faxrlil 1-o'rinni qo'lga kiritdim. Barcha erishgan yutuqlarimning sababchilari bu ustozlarimdir. Oxirgi 3-yil mobaynida yakka raqslardan “Pomircha raqs”, “Suxayl va Mehri”, uyg'urcha “Otush” raqsi, Mukarrama Turg'unboyeva ilk bor sahnalashtirgan “Pilla” raqsi, “Do'ppi” kabi raqslarni ijro etdim.

Muhtaram Prezidentimiz so'ngi yillardagi qator farmon va qarorlari ijrosi doirasida, qadimiy va boy madaniy merosimiz, milliy o'zligimiz, betakror qadriyat va an'alarimiz, madaniyatimiz, san'atimizni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi. Xalqimizning ma'naviy saviyasi va estetik tarbiyasini yuk-saltirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan raqs san'atini har tomonlama rivojlantirish zamon talabiga aylandi. 2021-2022- yillardan boshlab Buxoro, Qarshi, Namangan, Urganch kabi shaharlarda boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatlarini tashkil qilish yo'lga qo'yildi.

2025-yil xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab internatini tugatib, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasiga davlat granti asosida o'qishga qabul qilindim. Katta hayotga qadam qo'ydim. Hozirda, bu akademik dargohda M.Maxmudova, Sh.Xudoynazarova, D.Madraximova, N.Kadirovalar kabi tajribali va yuksak salohiyatli ustozlardan nafaqat to'g'ri raqsqa tushishni, balki, har bir qilayotgan harakatlarimni to'liq uslublarini, qanday nima uchun ijro etilishini o'zlashtirmoqdaman. Ustozlarimdan o'rganishim kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar juda ham ko'p va men uchun juda qiziq.

Avvallari pedagog bo'lishni orzu qilar edim, hozirda esa bu mening eng katta maqsadimga aylandi va u sari olg'a intilmoqdaman. Nega aynan pedagog? Aslida raqs ijro etishni juda ham yoqtiraman lekin raqs ijro etayotganimga qalbimdan o'tayotgan his-tuyg'ularni vaqti kelib o'z o'quvchilarimga his qildir olishimga ishonaman. O'z ustozlarim kabi pedagoglik kasbini egallash uchun bor kuchim bilan harakat qilaman.

Lazokatxon Olimjonova,
“Xoreografiya jamoalari rahbari”
ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

TAHRIR HAY'ATI

Nozim Qosimov

Hulkar Hamroyeva

Matluba Murodova

Po'lat Tashkenbayev

To'maris A'zam

Shahzoda Xudoynazarova

Gulasal Usmonova

Hamidjon Ro'ziboyev

BOSH MUHARRIR:

Shuxrat TOXTASINOV

BIZNING MANZIL:

100031, Toshkent shahri,
Yakkasaroy tumani,
Yusuf Xos Hojib ko'chasi,
103-uy.

NASHR UCHUN MAS'UL

Durdona Ubaydullayeva

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 1002-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Nashr indeksi: 145
Ofset usulida bosildi.
Qog'oz bichimi A-3

Bosishga topshirish vaqti:
19:00
Bosishga topshirildi: 21:25
Adadi: 200
Bahosi kelishgan narxda.

SAHIFALOVCHI:

Jurobek XIDIROV

Gazeta tahririyat kompyuterida terildi va sahifalandi.

“Niso nashriyot va matbaa uyi” mchj bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent viloyati,
O'rta Chirchiq tumani,
Mash'al mahallasi,
Markaziy ko'cha, 1-uy.

Buyurtma: 163
Hajmi 1 bosma taboq.